

tarmoqlarining tashkil etilganligi, transport va tashqi iqtisodiy aloqalar.

Navoiy viloyati barcha sohalarida o'ziga xos mavqeni egallaydi. Sanoatning ulushi bo'yicha respublikamizda birinchi, biroq qishloq xo'jaligi, savdo va umumiy ovqatlanish, soliqlar, kichik biznes hamda xizmatlar ulushi bo'yicha ham "birinchi", faqat viloyat ro'yxatlari oxiridan. Darhaqiqat, viloyat YAHMning atigi 36,9 foizini kichik biznes hissasiga tushadi, vaholanki, bu ko'rsatkich respublika bo'yicha o'rtacha 55 foizdan ziyod. Bunday mintaqaviy xususiyatlar ko'proq viloyatning tabiiy sharoit va resurslaridan kelib chiqqan holda, xo'jaligining tarmoqlar tarkibi va ixtisoslashuvi, demografik vaziyatiga bog'liq.

- Sotsial geografik omillar. Ushbu omillarga ta'lim, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish, chakana savdoaholining ijtimoiy guruxlarga mansubligi, ma'lumotlik darajasi, kasbiy qobiliyati, malaka darajasi, tibbiy – fiziologik ko'rsatkichlari, tarixiy urf-odatlar, mehnat qilishga bo'lgan qarashlari.

Sanoat, qishloq xo'jaligi va umuman ishlab chiqarishning "egasi", amalga oshiruvchisi inson, mehnat resurslari hisoblanadi. Ijtimoiy sohalarida ham aholi xizmat qiladi, biroq bu xizmat insonning o'ziga, uning sog'lig'i, ta'limi, dam olishi, davolanishi va boshqa ehtiyojlarini qondirishga qaratiladi. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o'zaro chambarchas bog'liq va ularni bir-biridan keskin ajratib bo'lmaydi.

Adabiyotlar

1. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya. –T.: 2004.
2. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti; nazariya va amaliyot. – T.: "Mehnat", 2004.
3. Алаев Э.Б. Социально-экономическая география. Понятийно-терминологический словарь. – М.: 1980.
3. Bo'riyeva M, Tojiyeva Z., Zokirov S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. –Toshkent: 2011.
4. Копилов В.А. География населения. -Москва: "Мысль", 2000.
5. Qayumov A. va boshqalar. Aholi geografiyasi va demografiyasi. –Toshkent: 2009.
6. Soliev A.S., Maxamadaliev R. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. – T.: 2005
7. Soliev A., Qarshiboeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari. –T.: 1999.
8. Soliyev A. O'zbekiston Geografiyasi (O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi). –Toshkent: "Universitet", 2014.

REZYUME. Maqolada Navoiy viloyati mehnat resurslarining shakllanishi va aholi bandligiga ta'sir etuvchi omillar, ya'ni, tabiiy geografik omillar, iqtisodiy geografik omillar, demografik omillar, sotsial geografik omillar tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ. В статье проанализированы факторы, влияющие на формирование трудовых ресурсов и занятость населения Навоийской области, а именно природно-географические факторы, экономико-географические факторы, демографические факторы, социально-географические факторы.

SUMMARY. The article analyzes the factors affecting the formation and employment of Labor resources of the Navoi region, namely, natural geographical factors, economic geographical factors, demographic factors, social geographical factors.

QORAQALPOG'ISTON USTYURTIGA TABIIY-GEOGRAFIK TAVSIF

Q.P.Turdbaev – *tayanch doktorant*

Ya.I.Ametov – *b.f.d., professor*

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Tayanch so'zlar: Ustyurt, shimoliy, markaziy, janubiy Ustyurt, chink, dengiz sathi, havo harorati, yog'ingarchilik miqdori, o'simlik va hayvonot dunyosi.

Ключевые слова: Устюрт, северный, центральный, южный Устюрт, чинк, уровень моря, температура воздуха, количество осадков, флора и фауна.

Key words: Ustyurt, northern, central, southern Ustyurt, chink, sea level, air temperature, precipitation, flora and fauna.

Ustyurt tekisligi Kaspiy va Orol dengizlari oralig'ida joylashgan, barcha tarafi tabiiy chegara, chinklar bilan chegaralangan. Ustyurt tekisligi administrativlik tomondan Qozog'iston Respublikasi (shimoliy-g'arbiy qismi), Turkmaniston Respublikasi (janubiy qismining ozgina hududi) va O'zbekiston Respublikasi (janubiy-sharqiy qismi) tarkibiga kiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasiga Ustyurt tekisligining janubiy-sharqiy qismi tegishli bo'lib, u administrativlik tomondan Qoraqalpog'iston Respublikasining Qo'ng'iro'tumani tarkibiga kiradi. Qoraqalpog'iston Ustyurti shimoliy-g'arbiy tomoni Qozog'iston Respublikasi, janubda Turkmaniston Respublikasi, janubiy-sharqda Qoraqalpog'iston Respublikasining Shumanay tumani, sharqda Mo'ynoq tumani bilan chegaradosh.

Ustyurt tekisligining umumiy maydoni 21 mln ga bo'lib, shundan Qoraqalpog'iston Respublikasiga tegishli qismi 7,1 mln ga. Hudud shimoldan janubga 500 km., g'arbdan-sharqqa 350 km masofaga cho'zilgan va dengiz sathidan 63-287 metr balandlikda joylashgan. Qoraqalpog'iston Ustyurti sharqiy, janubi-sharqiy va janubiy tomonlari tabiiy chegara tik jarliklar «chink»lar bilan chegaralangan. Ularning balandligi 150 metrga qadar yetadi. Ustyurtning janubi-sharqida Sariqamish ko'lining O'zbekiston Respublikasiga tegishli qismi joylashgan.

Ustyurt platosining usti relyefi bo'yicha bir tekisdek ko'rinadi, lekin aslida to'lqinsimon ko'rinishga ega. Shu bilan birga dengiz sathidan balandligi ham bir xil emas [3].

Ustyurtida deyarli kenglik bo'yicha joylashgan uchta botiq va ikkita tepalik mavjud. Ustyurtning shimolida o'rta qismi sho'rxoklardan iborat balandligi 100 m dan oshmaydigan botiqlar bor. Bu botiqlardan janub tamonda

Kassarma tepaligi joylashgan. Kassarma tepaligining janubida Borsakelmas botig'i joylashgan. Bu botiq tubining dengiz sathidan balandligi 63 m bo'lib sho'rxoklardan iborat. Borsakelmas botig'ining atrofi balandlashib, balandligi 150 m ga yetadigan yassi tekislikka aylanadi. Tekislikda ham sho'r yerlar uchraydi.

Borsakelmas botig'idan janubiy tomonda yer sathi asta balandlashib, Qorabovur tepaligi qirlariga tutashib ketadi. Qorabovur tepaligining usti yassi, dengiz sathidan mutlaq balandligi 150-290 m. Qorabovur tepaligining janubida dengiz sathidan balandligi 27-100 m gacha bo'lgan Asakaovdan botig'i joylashgan. U sharqda Sariqamish botig'i bilan tutashib ketadi.

Qoraqalpog'iston Ustyurti iqlimi va tuproq-geobotanik sharoitiga qarab 3 ta tabiiy geografik rayonga bo'linadi [2:106-111; 3:4]. Bular Shimoliy, Markaziy va Janubiy Ustyurt rayonlaridir.

1. Shimoliy Ustyurt hududi Qo'sbuloq qudug'iga parallel joylashgan Qoraqalpog'iston Ustyurtining dengiz sathidan balandligi 150 m dan ortmaydigan shimoliy tekislik qismi kiradi. Rayon hududining sharqiy qismida Oqtumshuq chinki yaqinida dengiz sathidan balandligi 220-256 m gacha yetadigan tekisliklar mavjud.

2. Markaziy Ustyurt tabiiy geografik rayoni maydoniga ko'ra eng katta rayon bo'lib, Qoraqalpog'iston Ustyurtining markaziy qismini egallaydi. Markaziy Ustyurt hududi Qo'sbuloq qudug'ining janubiy tarafidan Qorabovur tepaligigacha hududni o'z ishiga oladi. Bu rayon Ustyurtidagi balandligi eng past rayon hisoblanadi. Borsakelmas botig'ida eng past nuqta 63 m bo'lsa, rayon shimolida 150 m ga yetadi. Borsakelmas tubi sho'rxok bilan qoplangan botiq. Uni atrofidan sal qiya tekislik o'rab turadi.

3. Janubiy Ustyurt rayoni Qoraqalpog'iston Ustyurtining Qorabovur tepaligidan janubda joylashgan hududlarini o'z ichiga oladi. Yer yuzasi asosan tekislik bo'lib, sal qiya tekisliklar bilan o'ralgan Asakaovdon botig'i ushbu rayon-da joylashgan.

Qoraqalpog'iston Ustyurtining iqlimi keskin kontinental. Uning iqlimiga xos xususiyatlar – bu qishki havo haro-

rati O'zbekistonning boshqa hududlariga nisbatan ancha past bo'lishi, qishning uzoq vaqt davom etishi, yozgi havo haroratining yuqoriligi va yog'ingarchilikning kamligidir. Oqtumshuq va Qoraqalpog'iston gidrometeorologik stantsiyasi ma'lumotlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Ustyurtining shimoliy, markaziy va janubiy hududlarida iqlim sharoitlari bir-biridan farq qiladi (1-jadval).

1-jadval. Qoraqalpog'iston Ustyurtining havo harorati ko'rsatkislari, °C (2011-2022)

Yillar	Oqtumshuq gidrometeorologik stantsiyasi			Qoraqalpog'iston gidrometeorologik stantsiyasi		
	o'rt	max	min	o'rt	Max	Min
2011	8,7	40,9	-27,5	9,9	47,0	-27,6
2012	9,5	42,3	-29,1	10,5	44,5	-29,0
2013	10,7	40,8	-23,5	12,0	40,0	-19,2
2014	9,2	37,0	-34,1	10,3	44,5	-33,7
2015	10,3	41,4	-19,4	11,6	46,0	-22,0
2016	10,9	42,1	-22,1	11,7	41,0	-28,4
2017	10,1	38,8	-26,1	11,3	46,6	-26,7
2018	8,9	43,4	-27,5	10,4	45,8	-26,2
2019	10,3	43,0	-21,1	11,7	45,1	-18,3
2020	10,6	45,6	-23,7	11,7	43,8	-22,8
2021	10,9	41,0	-28,5	12,3	45,0	-24,8
2022	10,3	43,0	-30,0	11,8	44,6	-20,8

Izoh: Gidrometeorologik stantsiyalar ma'lumotlari o'rganishlar asosida mualliflar tomonidan tahlil qilingan

Shimoliy Ustyurtning iqlimi qishning qattiqligi bilan ajralib turadi. Bu hududda sutkalik o'rtacha havo harorati -10°C dan past bo'lgan davr 20 kun davom etib, qor qoplam 60-70 kun saqlanadi. Yaxmalakli kunlar soni 6 kundan 10 kungacha davom etadi. Qish oylaridagi manfiy haroratning yig'indisi 850-900°C ni tashkil etadi. Oqtumshuq gidrometeorologik stantsiyasi ma'lumotlari bo'yicha yanvar va fevral oylarida eng past havo harorati -34,1°C ga etadi. Ayrim yillar bahor oylarida ham qattiq sovuqlar bo'lib turadi. Masalan, 1954-yil mart oyida Churuqda haroart -37°C gacha, Qo'sbuloqda – 34°C gacha pasaygan [5].

Yoz Shimoliy Ustyurtda issiq va quruq, eng yuqori harorat ayrim yillari hatto +45,6°C gacha ko'tariladi. Havo harorati +10°C dan yuqori bo'lgan davrdagi haroratning yig'indisi 3500-3700°C.


Markaziy Ustyurt iqlimi Shimoliy Ustyurnikidan qishi biroz iliqroqligi bilan farq qiladi. Sutkalik o'rtacha havo harorati -10°C ga yetadigan kunlar deyarli kuzatilmaydi. Qoraqalpog'iston gidrometeorologik stantsiyasi ma'lumotlari bo'yicha past havo harorati -33,7°C, qor 40-60 kungacha saqlanib turadi va yaxmalakli kunlar 1-10 kungacha, havo harorati +10°C dan yuqori bo'lgan davrdagi sutkalik o'rtacha haroratlari yig'indisi 3700-4000°C ni tashkil qiladi.

Janubiy Ustyurt Markaziy Qozog'iston va Turon provintsiyalari chegarasida joylashganligi sababli iqlimi Ustyurtning boshqa hududlariga nisbatan ancha yumshoqroq. Haqiqiy qish 4 oydan oshmaydi. Hattoki ayrim yillari haqiqiy qish kuzatilmaydi. Qish davridagi manfiy havo harorati yig'indisi 500°C gacha, qorlar 30-40 kun saqlanib, yaxmalakli kunlar bo'lsa 1-5 kunni tashkil etadi.

Janubiy Ustyurtda yoz shimoliy hududlarga nisbatan issiq va quruqroqdir. Iyul oyida maksimal havo harorati

+47°C ga teng. O'rtacha havo harorati +10°C dan yuqori bo'lgan davrdagi haroratning yig'indisi 4000-4500°C.

So'nggi yillarda Qoraqalpog'iston Ustyurtida o'rtacha yillik havo harorati ko'tarilib bormoqda. Oqtumshuq va Qoraqalpog'iston gidrometeorologik stantsiyasi bergan ma'lumotlari bo'yicha o'rtacha havo harorati 2011-yilda +8,7-9,9°C ni tashkil etsa, 2022-yilda bu ko'rsatkish +10,3-11,8°C ga yetgan (1-rasm).



1-rasm. Qoraqalpog'iston Ustyurtining o'rtacha yillik havo harorati ko'rsatkislari, °C da


Qoraqalpog'iston Ustyurtida oqar suv manbalari yo'q. Ustyurtning suv resurslari asosan yer osti va bahorgi namgarchilik vaqtida chuqurliklarda yig'ilib qolgan suvlar hisoblanadi. Ustyurtda yer osti suvlarining joylashishi ham bir xil emas. Ular shimoliy qismida 3-35 m dan 80 m gacha, janubiy qismida 18-35 m dan 100-140 m gacha, markaziy qismida 5-50 m dan 100-110 m gacha yetib, ko'psiligi sho'r. Bahorgi namgarchilik vaqtida chuqurliklarda yig'ilgan suvlar kun isishi bilan bug'lanib ketadi. Oqtumshuq va Qoraqalpog'iston gidrometeorologik stantsiyasining ma'lumotlari bo'yicha Ustyurtda yog'ingarchilik miqdori bir tekis taqsimlanmagan (2-jadval).

2-jadval. Qoraqalpog'iston Ustyurtida nisbiy havo namligi va yog'ingarchilik miqdori, mm

Yillar	Oqtumshuq gidrometeorologik stantsiyasi			Qoraqalpogʻiston gidrometeorologik stantsiyasi		
	Nisbiy namlik,%		Yogʻingarchilik miqdori, mm	Nisbiy namlik,%		Yogʻingarchilik miqdori, mm
	oʻrt	min		oʻrt	Min	
2011	63	11	17,6	53	10	167,6
2012	58	9	13,4	48	6	101,1
2013	65	8	25,0	50	3	185,5
2014	65	12	20,9	54	6	122,3
2015	66	8	37,2	53	6	178,0
2016	67	15	21,5	54	6	261,0
2017	64	7	19,4	52	5	107,7
2018	62	10	32,7	53	4	132,5
2019	61	8	37,9	58	5	208,9
2020	59	10	23,9	50	5	74,8
2021	59	10	24,4	49	5	57,9
2022	63	10	31,9	58	5	181,0

Izoh: Gidrometeorologik stantsiyalar ma'lumotlarini o'rganishlar asosida mualliflar tomonidan tahlil qilingan

Adabiyot ma'lumotlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Ustyurtida o'rtacha yillik yog'ingarchilik miqdori 100-122 mm ni tashkil etadi. So'nggi yillarda Ustyurtning shimoliy qismida o'rtacha yillik yog'ingarchilik miqdori 13,4-37,9 mm, markaziy qismida 59,9-261 mm kuzatilgan (2-rasm). Yog'ingarchilikning bunday taqsimlanishiga asosiy sabab uning geografik joylashuvi va g'arbdan, shimoli-g'arbdan keladigan havo massalari bilan bog'liq.



2-rasm. Qoraqalpog'iston Ustyurtida yog'ingarchilik miqdori, mm da

Qoraqalpog'iston Ustyurtida sur-qo'ng'ir, taqirli tuproqlar keng tarqalgan. Sur-qo'ng'ir tuproqlar yupqa bo'lib, undagi chirindi miqdori 0,5-0,8% dan oshmaydi, tarkibida gips ko'p va sho'rlangan. Taqirli tuproqlar bilan birgalikda taqirlar ham uchraydi. Shuningdek, Ustyurtidagi botiqlarda sho'rxoklar, sho'rxok botqoqlar, taqir sho'rxok, sho'rtob tuproqlar bor. Borsakelmas botig'ining shimoliy qismi qum va qumli tuproqlardan tashkil topgan.

Iqlimning noqulayligi va deyarli bir xil tuproq sharoiti Qoraqalpog'iston Ustyurtida o'simliklarning siyrak o'sishiga olib kelgan. Ustyurt tekisligida 59 oila 295 turkumga mansub 724 yuksak darajali osimliklar borligi aniqlangan [4].

O'simliklar asosan shuvoq va sho'ralardan iborat. Bulardan tashqari, qirqbo'g'in, kovrak, qorasaksovl, oqsaksovl, bular, boyalich, tetir, sarsazan, ilqoq kabilar ham uchraydi, Ustyurtidagi botiqlarda asosan oqsaksovl,

qorasaksovl, kovrak, sarsazan keng tarqalgan. Oq va qorasaksovlarning balandligi 3-4 m ga yetadi. Bahorda efemer va efemeroidlar katta maydonlarni egallaydi va kun isishi bilan qurib qoladi. Shuningdek, qumli tuproqlarda saksovl, ular orasida ilqoq o'sadi.

Qoraqalpog'iston Ustyurtida umurtqali havvonlarning 300 dan ortiq turlari tarqalgan [1:74-88; 6:25-28]. Turlar sonining ko'pligi bo'yicha qushlar yetakshi o'rinni egallaydi. Bu yerda yilning turli mavsumlarida 200 dan ortiq qush turlari uchraydi, asosan chumchuqsimonlar va yirtqich qushlar uyulaydi. Tekisliklarda yo'rg'a, tuvaloq, qorabovur, suv bulduruq, kul rang to'rg'ay, toshsurchumchuqlar uchraydi, chinklarda yirtqich qushlar va bahorgi yog'ingarchiliklarda toplanagan suvlarda o'rdaklar uchraydi.

Ustyurtidagi sut emizuvchilardan ola putorak, tamarisk qumsichqoni, Seversov qo'shoyog'i va kichik qo'shoyog, qum quyon, uzun ignali tipratikan va qizil dumli qumsichqon keng tarqalgan. Ustyurtida yashovchi sut emizuvchilardan sayg'oq, jayron, Ustyurt qo'yi, hind asalxo'ri, qoraquloq, qushlardan yo'rg'a tuvaloq, burgut, cho'l burguti va bir nechta yirtqich qushlar yo'qolib ketish arafasida turganligidan O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobga kiritilgan. Yo'qolib ketish arafasida turgan o'simlik va hayvonlarni muhofaza qilish uchun Ustyurtning shimoliy tamoniida Saygachiy majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonasi, markaziy qismida Sudoche-Akpetki va Borsakelmas davlat buyurtma qo'riqxonasi va janubiy qismida Janubiy Ustyurt milliy tabiat bog'i tashkil etilgan.

Qoraqalpog'iston Ustyurtida so'nggi yarim asrda gaz, neft va boshqa qimmatbaho metallarni izlash ishlari jadal rivojlandi. Bu hududdan transkontinental temir yo'l, Markaziy Osiyo-Rossiya gaz quvuri va boshqa aloqa liniyalari o'tkazildi. Shuningdek, Jasliq, Qoraqalpog'iston, Elobod va Aqsho'laq nomli shahar tipidagi yirik aholi yashash punktlari paydo bo'ldi. Bularning hammasi o'simlik dunyosi va yovvoyi hayvonotlarga texnogen ta'sirlarning kuchayishiga olib kelmoqda.

Adabiyotlar

1. Быкова Е. А., Есипов А.В., Головцов Д.Е., Нуриджанов Д.А. / Фауна наземных позвоночных Восточного чинка плато Устюрт. // Вестник Тюменского государственного университета. Экология и природопользование. 2017. Т 3. № 4. -С. 74-88.
2. Клейменова И. Е. Эколого-географическое районирование Каракалпакского Устюрта. // Вестник ОГУ №10 (116). 2010. – С. 106 –111.
3. Матмуратов Ж. Агроклиматические условия Северо-Западного Узбекистана. – Нукус: «Каракалпакстан», 1989. –С.255.
4. Сарыбаев Б.П. Флора и растительность плато Устюрт и перспективы их использования: Автореф. дисс. ... док. биол. наук. –Ташкент: 1994. –С. 48.
5. Хасанов И.А., Филомов П.Н., Каюмов А.А. Ўзбекистон табиий географияси (2 қисм). – Тошкент: 2010. 98-б.
6. Matekova G.A., Turdibaev K., Ametova N.I., Ametov Ya.I., Jumanov M.A. Ecological features of the ornithofauna of the karakalpak part of the Usturt Plateau. International Journal of Entomology Research, Volume 7, Issue 12, 2022, -P. 25-28

REZYUME. Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Ustyurtining tabiiy-geografik joylashuvi, geografik rayonlari so'nggi yillardagi havo harorati va yog'ingarchilik miqdorining o'zgarishi, o'simlik va hayvonot dunyoining hozirgi holati va ularni muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье описано физико-географическое положение Каракалпакского Устюрта, изменение температуры воздуха и количества осадков в разные годы, современное состояние флоры и фауны и работы, которые можно провести по их охране.

SUMMARY. The article describes the physical and geographical position of Karakalpak Ustyurt, changes in air temperature and precipitation in different years, the current state of flora and fauna and the work that can be done to protect them.